



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 5-aprel, № 70 (8965)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



IKKI MINTAQA O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA MUTLAQO YANGI DAVR BOSHLANDI

4-aprel kuni Samarqand shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida
«Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi» birinchi sammiti bo'lib o'tdi.



“Kelajakka investitsiyalar” shiori ostida o'tgan tadbirda Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir

Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso hamda Yevropa investitsiya banki rahbariyati ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi, xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlarini yuzasidan fikr almashildi.



Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko'paytirish, innovatsiyalar, “yashil” energetika, tog'-kon, qishloq xo'jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo'shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish,

madaniyat, turizm, fan, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari tadbirni ochar ekan, Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi chuqur tarixiy ildizlarga ega munosabatlar jadal rivojlanib, mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING «MARKAZIY OSIYO — YEVROPA ITTIFOQI» BIRINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli xonimlar va janoblari!

Sizlarni «Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi» birinchi sammitida qutlashdan g'oyat mamnunman.

Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta Janobi Oliyalariga, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen Xonim Oliyalariga, mening barcha hamkasblarim — mintqa mamlakatlari yetakchilariga sammitni aynan shu zaminda, qadimiy Samarqand shahrida o'tkazish borasidagi tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaganlari uchun minnatdorlik bildiraman.

Ko'p asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'llari chorrahasida joylashgan ushbu shonli shahar sivilizatsiyalar muloqoti hamda Sharq va G'arb o'rtasidagi diplomatiya, savdo va madaniy almashuvlarning muhim markazi bo'lgan.

Bu haqda ko'plab tarixiy dalillar mavjud. Masalan, Movarounnahr hukmdori Amir Temur bundan olti asrdan ziyod vaqt oldin aynan shu zaminda turib erkin va xavfsiz savdoni ta'minlash maqsadida Yevropa hukmdorlari bilan faol muloqotlarni yo'lga qo'ygan.

Bizning Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqa buyuk alloma va mutafakkirlarimiz jahon, jumladan, Yevropa ilm-fani va falsafasi rivojiga beqiyos hissa qo'shganini albatta qayd etmasdan o'tolmaymiz.

Bugun men mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardimki, bizning chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan munosabatlarimiz hozirgi zamon sharoitida jadal rivojlanmoqda va mustahkamlanmoqda.

Shu kunlarda bo'lib o'tgan ochiq, konstruktiv va samarali uchrashuvlar mamlakatlarimiz va mintaqalarimiz manfaatlarini yo'lida sheriklik va amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lgan siyosiy irodamiz va qat'iyatimizni yana bir bor namoyon etdi.

Yevropa Ittifoqi asosiy institutlari rahbarlariga o'zaro anglashuv va Markaziy Osiyoda integratsiya va barqaror taraqqiyot jarayonlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani uchun yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Men bu zalda an'anaviy sheriklarimiz — Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Reno-Baso va Yevropa investitsiya banki vakillarini ko'rib turganimdan ham xursandman. Ushbu moliya institutlarining «Kelajakka sarmoyalar» shiori ostida o'tayotgan bugungi sammitimizning vazifa va qarorlarini ilgari surishdagi roli o'ta muhim, deb hisoblayman.

Shu o'rinda bundan sakkiz yil oldin O'zbekiston bilan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki munosabatlari to'xtab yotganini qayd etishni istar edim. Bugun esa biz bankning eng yirik benefitsiarlaridan birimiz.

Hurmatli hamkasblar!
Ashxoboddagi uchrashuvlar yakunlari

bo'yicha bizning vazirlar va ekspertlarimiz ko'p tomonlama hamkorlikning barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan sammit kun tartibini tayyorlashdi.

Shuningdek, biz bugun Markaziy Osiyo duch kelayotgan zamonaviy ekologik tahdidlarga bag'ishlangan Samarqand iqlim forumi yalpi sessiyasida ham birgalikda ishtirok etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Bizning uchrashuvimiz jadal va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan global jarayonlar sharoitida o'tmoqda.

Biz geosiyosiy ziddiyatlar, xavfsizlik muammolari, yirik mintaqaviy mojarolarning hamda barqaror taraqqiyotga nisbatan ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlarning xalqaravo huquqning guvoh bo'lmoqdamiz.

Ayonki, hyech bir mintqa keng xalqaro hamkorliksiz bu qadar murakkab masalalarni mustaqil holda hal etishga qodir emas.

Shu munosabat bilan ta'kidlashni istardimki, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi an'anaviy sheriklar bo'lib, o'zaro yaqin hamkorlik uchun talab faqat o'sib bormoqda. Biz ham Yevropa tomoni kabi xalqaro huquqning tamoyil va me'yorlariga sodiqligimizni bildiramiz.

Ukraina atrofidagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha muzokaralar jarayonlari boshlanganini olqishlaymiz va to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Oldinda juda murakkab va yechimi oson bo'lmagan masalalar turganini tushunamiz.



KELAJAK AVLODLAR BARQAROR, XAVFSIZ VA FAROVON HAYOTDA YASHASHI UCHUN BARCHA CHORA-TADBIRLARNI KO'RISH — ASOSIY VAZIFAMIZ

4-aprel kuni «Buyuk Ipak yo'li» xalqaro turizm majmuasidagi kongress
markazida birinchi Samarqand xalqaro iqlim forumi o'z ishini boshladi.

Forumning yalpi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki

rahbari Odil Reno-Basso, Yevropa iqtisodiy komissiyasi ijrochi kotibi Tatyana Molchan, Aholi punktlari bo'yicha dastur ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax, Cho'llanishga qarshi kurashish konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav va boshqalar ishtirok etdi.

Anjuman qatnashchilari orasida 2 mingdan ortiq xorijiy mehmonlar, jumladan, milliy va global ekologik tashkilotlar, xalqaro tuzilmalar rahbarlari, ekspertlar, olimlar va jurnalistlar, biznes vakillari bor.

«Markaziy Osiyo global iqlim muammolariga duch kelmoqda: barqaror rivojlanish va farovonlik uchun mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash» mavzuidagi forum kun tartibiga muvofiq Markaziy Osiyo oldida turgan dolzarb iqlim muammolari muhokama qilindi, ekologik barqarorlik, «yashil» iqtisodiy taraqqiyot va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda mintaqaviy hamkorlik masalalari ko'rib chiqildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SAMARQAND XALQARO IQLIM FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblari!

Barchangizni bugungi davrdagi asosiy tahdid — global iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan konferensiyamizda chin yurakdan qutlayman.

Hurmatli hamkasblarim — Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nomidan qatnashayotgan bizning ishonchli hamkorlarimiz, xalqaro moliya institutlari, global va milliy ekologik tashkilotlar vakillariga ushbu tadbirda ishtirok etayotgani uchun samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Sizlarning forumdagi ishtirokingiz barqaror rivojlanishning eng dolzarb masalalari bo'yicha samarali yechimlar izlashda birgalikda sa'y-harakatlar olib borishga sodiqlik namunasidir.

Ishonchim komil, bu zaminda, asrlar davomida yangi g'oya va bilimlar yaratilgan, ishonch va bunyodkor sheriklik markazlaridan biri bo'lgan qadimiy Samarqandda biz iqlim sohasidagi zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha birgalikda ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqa olamiz.

O'zbekistonga xush kelibsiz!

Samarqandga xush kelibsiz!

Hurmatli forum ishtirokchilari!

O'tgan yili sayyoramizda o'rtacha havo harorati birinchi marta Selsiy shkalasi bo'yicha bir yarim darajadan yuqoriroq ko'tarildi. So'nggi o'n yillik butun meteokuzatuvlar tarixidagi eng issiq davr bo'ldi. Buning oqibatida bugun biz barchamiz iqlim inqirozlarining salbiy ta'sirlari — o'rmon yong'inlari va cho'llanish miqyosi ortib borayotgani, muzliklar qisqarayotgani, suv resurslari taqchilligi kuchayayotgani, havo sifati yomonlashayotganini his qilib turibmiz.

Ta'kidlab aytaman, atrof-muhitni asrab-avaylashda mas'uliyat barchamizning zimmasida. Bu kun tartibimizdagi eng muhim masaladir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha strategiya ishlab chiqilgani va bir ovozdan ma'qullanganini ta'kidlash joiz. O'zbekiston mintaqadagi barcha sheriklar bilan umumiy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha yaqindan ishlash niyatidadir.

Biz, shuningdek, Yevropa tomoni bilan Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish, suvdan oqilona foydalanish, «toza» energiya manbalarini kengaytirish dasturlari doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilyapmiz. Bunday sheriklik Markaziy Osiyoda barqaror «yashil» rivojlanishga muhim hissa qo'shadi.

Hyech shubhasiz, bugungi kunda Yevropa Ittifoqi iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish

masalalarini ilgari surish va himoya qilishda global yetakchidir. Biz kelgusida ham bu sohadagi amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga tayyormiz.

Hurmatli xonimlar va janoblari!

Iqlim o'zgarishi muammolari oziq-ovqat va energiya xavfsizligi bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqa aholisi 25 yildan so'ng 100 million kishidan ortishi kutilayotgan bir vaqtda unumli yerlar tez sur'atlar bilan qisqarib bormoqda.

Bugungi kunda mintaqadagi umumiy yer maydonining 20 foizdan ortig'i degradatsiyaga uchragan. Chorak asrdan keyin hosildorlik uchdan bir qismga kamayib ketishi mumkin.

Shu munosabat bilan, o'rmon xo'jaligi va agrar sohaning moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, «Ufq — Yevropa» dasturi doirasida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ilmiy salohiyatimizni birlashtirish hayotiy muhim masala, deb hisoblayman.

O'zbekiston degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini qisqartirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida «Yashil makon» loyihasi doirasida keng ko'lami ko'kalamzorlashtirish ishlari olib bormoqda. Bundan tashqari, Orolbo'yining 2 million gektardan ortiq cho'l hududlarida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekildi.



AMALIY HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-aprel kuni Samarqand iqlim forumi doirasida BMT tuzilmalari va bir qator xalqaro tashkilotlar rahbarlarini qabul qildi.

BMT Bosh kotibi o'rinbosari, Yevropa iqtisodiy komissiyasi ijrochi kotibi Tatyana Molchan davlatimiz rahbariga BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

Shavkat Mirziyoyev komissiyaning 2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi muhim o'rnini, shuningdek, transport, innovatsiyalar, to'qimachilik, energetika, ekologiya va gender tenglik sohalarida, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi

masalalarida ko'rsatilayotgan ekspertlik ko'magini alohida qayd etdi.

Mintqaviy va mamlakat miqyosidagi loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil noyabr oyida Boku shahrida bo'lib o'tgan BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammitida bildirilgan tashabbuslarni amaliy ilgari surish jihatlarini muhokama qilindi.

O'zbekiston tomonining taklifiga binoan SPEKAning 2030-yilgacha

rivojlanish konsepsiyasi qabul qilangani, YEIK bilan savdo tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» imzolangani, Transkaspiy yo'lagi doirasida raqamlashtirish va hujjatlar almashinuvi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yil boshida komissiya ko'magida O'zbekiston Aholining ekologiya holati to'g'risidagi ishonchli axborotdan foydalanishi to'g'risidagi Oxrus konvensiyasiga qo'shildi.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SAMARQAND XALQARO IQLM FORUMIDAGI NUTQI



Har yili Navro'z bayrami arafasida darast ekish bo'yicha "Markaziy Osiyoning yashil belbog'i" mintaqaviy aksiyasini o'tkazishni taklif etaman.

Aminmanki, uning tashkil etilishi bizning ezgu an'anamizga va tabiiy ofatlarga qarshi kurashdagi birligimiz timsoliga aylanadi.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotning resurslarni tejaydigan va ekologik toza modeliga o'tishni boshladi.

Bu boradagi eng muhim yo'nalishlardan biri – "yashil" energetikadir. Yaqin besh yilda qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiya ulushini 54 foizga yetkazishni mo'ljallayapmiz. Bu atmosfera ga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini 16 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

Biz O'zbekistonning Parij bitimi doirasida bug' gazlari chiqarishni 35 foizga kamaytirish bo'yicha olgan majburiyatini muddatidan oldin bajarish uchun barcha sa'y-harakatlarimizni ishga solishimizni ta'kidlab o'tmoqchiman.

Shu bilan birga, biz bu marrada to'xtab qolmoqchi emasmiz.

Moliyalashtirish, texnologiyalar va kompetensiyalarni safarbar qilish maqsadida Toshkent shahrida Yevropa Ittifoqining "Suv – Energiya – Iqlim o'zgarishi" deb nomlangan tashabbusining kotibiyatini tashkil qilishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, umumiy strategik vazifalarni amalga oshirish doirasida mazkur forumda mintaqaning "Yashil" taraqqiyot konsepsiyasi taqdim etiladi. Ishonamanki, mazkur hujjatning qabul qilinishi va amalga oshirilishi

Markaziy Osiyoning ekologik yo'naltirilgan taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Hurmatli delegatsiyalar a'zolari!

Tahillarga ko'ra, Amudaryo va Sirdaryoda suv oqimi kamayishi natijasida 2040-yilga borib Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori darajadagi suv taqchilligiga duch keladi. Biz allaqachon insoniyatning eng yirik fojialaridan biri – Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz.

Biz suv resurslarini tejash maqsadida irrigatsiya tizimlarini betonlashtirayapmiz. Suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha sanoat bazasini yaratdik, sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalarni joriy etdik. (Bu salkam ikki million gektar yer maydoni demakdir). Bunday chora-tadbirlar natijasida o'tgan yili 8 milliard metr kub suvni tejashga muvaffaq bo'ldik.

Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturini ishga tushirishga chaqiramiz. Bu rejalarning barchasini ekspertlar muhokamasidan o'tkazish uchun Orolbo'yi mintaqasida xalqaro forum o'tkazishni maqsad qilganmiz.

Shuningdek, muzliklarning holati va mintaqadagi tog' ekotizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan baholash uchun sun'iy yo'ldosh orqali uzluksiz kuzatuvlarni yo'lga qo'yish bo'yicha "Kopernik" dasturi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan yaqin hamkorlikka umid qilamiz.

Toshkentdagi "Yashil universitet" bazasida yaratilgan Iqlim rezidensiyasi Markaziy Osiyoda kechayotgan iqlim jarayonlarini o'rganish va monitoring qilish bo'yicha umumiy ilmiy-ekspertlik platformasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ertaga Nukus shahrida mintaqamizning ekologik muammolariga san'at sohasidagi loyihalar orqali e'tiborni jalb etishga qaratilgan Orol madaniyat sammiti o'z ishini boshlaydi.

Qadri do'stlar!

So'zimming nihoyasida "**Biz Yerni ajdodlarimizdan meros sifatida emas, balki farzandlarimizdan qarzga olganmiz**", degan mashhur hikmatli iborani eslatib o'tishni istar edim. Bugungi kunda bizning vazifamiz – kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rishdan iborat.

Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumiy ezgu maqsadlar yo'lida birlashgan barcha davlatlarning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish zarur.

E'tiboringiz uchun rahmat.

KELAJAK AVLODLAR BARQAROR, XAVFSIZ VA FAROVON HAYOTDA YASHASHI UCHUN BARCHA CHORA-TADBIRLARNI KO'RISH – ASOSIY VAZIFAMIZ



BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish forum ishtirokchilariga videomurojaat yo'lladi.

Yalpi sessiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari nutqining avvalida forumning xalqaro miqyosi va ishtirokchilarning nufuzi jahon hamjamiyati barqaror taraqqiyotning eng dolzarb masalalariga samarali yechim izlashda birgalikda sa'y-harakatlar olib borishga sadiqligi namunasi ekanini ta'kidladi.

O'tgan yili dunyoda ilk bor o'tacha harorat Selsiy shkalasi bo'yicha bir yarim darajadan yuqoriroq ko'tarilgan qayd etildi. So'nggi o'n yillik meteokuzatuvlar tarixida eng issiq bo'ldi.

– Buning oqibatida bugun biz barchamiz iqlim ing'izlarining salbiy ta'sirlari – o'rmon yong'inlari va cho'llanish miqyosini ortib borayotgani, muzliklar qisqarayotgani, suv resurslari taqchilligi kuchayayotgani, havo sifati yomonlashayotganini his qilib turibmiz, – dedi O'zbekiston Prezidenti.

Mintaqa mamlakatlari tomonidan Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyasi ishlab chiqildi va bir ovozdan ma'qullandi.

Orol dengizi qurishining oqibatlarini yumshatish, suvdan oqilona foydalanish, "toza" energiya manbalarini kengaytirish dasturlari doirasida yevropalik sherkilar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilinayotgani ta'kidlandi. Bunday sherkilik Markaziy Osiyoning barqaror "yashil" taraqqiyotiga muhim hissa qo'shadi.

Shu ma'noda, iqlim o'zgarishini himoya qilish va unga qarshi kurashish masalalarini ilgari surishda global yetakchi bo'lgan YevroIttifoq bilan amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Iqlim o'zgarishi muammolari oziq-ovqat va energiya xavfsizligi bilan uzviy bog'liq ekanida ta'kidlandi. Unumdor yerlar keskin kamayib bormoqda, bugungi kunda mintaqadagi jami yer maydonining 20 foizdan ortig'i degradatsiyaga uchragan. Chorak asrdan so'ng hosildorlik uchdan bir qismga kamayishi mumkin.

– Shu munosabat bilan, o'rmon xo'jaligi va agrar sohaning moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, "Ufq – Yevropa" dasturi doirasida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ilmiy salohiyatimizni birlashtirish hayotiy muhim masala, deb hisoblayman, – dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Prezidentimiz O'zbekistonda degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini qisqartirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berdi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida keng ko'lami ko'klamzorlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Orolbo'yining 2 million gektardan ortiq cho'l hududlarida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekilgan.


Har yili Navro'z bayrami arafasida "Markaziy Osiyoning yashil belbog'i" darast ekish mintaqaviy aksiyasini o'tkazish taklif qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotni rivojlantirishning resurslarini tejaydigan va ekologik toza modeliga o'tish masalasiga ham e'tibor qaratdi.

Bu sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri – "yashil" energetika.

Kelgusi besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bu "issiqxona gazlari" chiqindilari hajmini qariyb 16 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

– Biz O'zbekistonning Parij bitimi doirasida bug' gazlari chiqarishni 35 foizga kamaytirish bo'yicha olgan majburiyatini muddatidan oldin bajarish uchun barcha sa'y-harakatlarimizni ishga solishimizni ta'kidlab o'tmoqchiman, – dedi davlatimiz rahbari.



Havo konvensiyasi va Sanoat avariylarining transchegaraviy ta'siri to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish masalasi ishlab chiqilmoqda.

SPEKA dasturining Maqsadli jamg'armasini tez fursatda ishga tushirish muhim ekani ta'kidlandi.

BMT Bosh kotibi o'rinbosari, BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi (BMT-Xabitat) ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax bilan uchrashuv chog'ida ushbu nufuzli institut bilan shaharlarni barqaror rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholi turmush sifati oshirish borasida ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

BMTning yuqori darajali vakili mamlakatimizda "aqlli" va "yashil" shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan urbanizatsiya sohasidagi islohotlarni ijobiy baholadi.

Shaharlarni boshqarishga zamonaviy raqamli yechimlarni joriy qilish, "yashil" qurilish standartlarini ishlab chiqish, shahar muhitida iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha maxsus dasturni ishga tushirish borasidagi hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etildi.

O'zbekistonda Butunjahon tozalik kunini o'tkazish va Toshkentda tashkilot ofisini ochish

masalalari ko'rib chiqildi. Amaliy hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

BMT Bosh kotibining o'rinbosari, Cho'llanishga qarshi kurashish konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav bilan uchrashuvda mamlakatimiz va mintaqamizda cho'llanish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish sohasida BMTning ushbu nufuzli tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

BMT vakili O'zbekiston rahbarining forumdagi nutqini yuqori baholab, iqlim tahdidlariga qarshi kurashish bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslarning dolzarbligi va Markaziy Osiyoning "Yashil" taraqqiyot konsepsiyasi o'z vaqtida taqdim etilganini ta'kidladi.

O'tgan yil avgust oyida BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan o'rmonlarni tiklash bo'yicha rezolyutsiyani bir ovozdan ma'qullagan, shuningdek, yerlar degradatsiyasining oldini olish bo'yicha milliy maqsadlarni ishlab chiqish boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Toshkent shahridagi "Yashil universitet" negizida Yerlar degradatsiyasi va cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro ilmiy tarmoqni tashkil etishga Konvensiya ekspertlari jalb qilinishi belgilandi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika

va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazru'iy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv avvalida vazir davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktum va vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Qabul qilingan "Yo'l xaritasi" asosida ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida BAAga amalga oshirgan tashrifining tarixiy yakunlari, natijada ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zaro savdo hajmi, qo'shma korxonalar va to'g'ridan-to'g'ri parovozlar soni barqaror oshib bormoqda. Amirliklarning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar portfeli qariyb 20 milliard dollarni tashkil etmoqda.

O'zbekiston hududlarida "yashil" energetika, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, kommunal va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlarga tayyorgarlik masalalarini ham ko'rib chiqildi.

So'ngra davlatimiz rahbari O'zbekiston – Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamraisi,

AMALIY HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN KONSTRUKTIV MUZOKARALAR

Bugun dunyoning nigohi yana O'zbekistonga qaratilgan. 3 – 9-aprel kunlari mamlakatimiz bir nechta xalqaro anjumanlarga mezbonlik qiladi. Ular orasida bugun Toshkent shahrida o'z ishini boshlaydigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbir parlamentlararo hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qilish, tajriba almashish va qo'shma qarorlar ishlab chiqish uchun muhim maydon bo'ladi. Yubiley assambleyasining O'zbekistonda o'tkazilishi uning xalqaro jarayonlardagi o'rni ortib borayotgani va global miqyosda hamkorlikni mustahkamlashga intilishini namoyon qiladi.

Tadbir butun dunyodan 2 mingga yaqin yuqori martabali mehmonlarni, jumladan, parlament spikerlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, yetakchi siyosatchilarni bir stol atrofiga jamlaydi. Bu O'zbekistonning xalqaro siyosatdagi nufuzini yanada mustahkamlash uchun qulay imkoniyatdir.

Ayni kunlarda mamlakatimiz parlamentida ish qizg'in. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida turli mamlakat delegatsiyalari bilan qizg'in uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Xususan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva kecha xorijlik hamkasblari bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Qatar Davlati Sho'ro kengashi Raisi Hasan bin Abdulloh al-G'onim boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama etildi.

Tomonlar O'zbekiston va Qatar parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyatini yanada jonlantirish, oliy darajada erishilgan ikki tomonlama bitimlarning ijrosini ta'minlash va qonunchilik sohasida tajriba almashishni davom ettirishga kelishib oldi.

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi tadbirlari doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Tailand Milliy assambleyasi Prezidenti va Vakilhar palatasi Spikeri Van Muhammad Nur Matha bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Tailand o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik hamda qonunchilik sohasidagi munosabatlar muhokama qilindi.

Shuningdek, parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ham ko'rib chiqildi. Jumladan, ikki mamlakat parlamentlari o'rtasida doimiy aloqa o'rnatish, do'stlik guruhlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi sohasidagi tajribani o'rganish va turizm sohasidagi qonunchilik amaliyoti bilan almashish kabi muhim yo'nalishlar belgilab olindi.

Tadbir yakunida ikki mamlakat parlamentlararo aloqalarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha qo'shma tashabbuslar ishlab chiqishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Pokiston Islom Respublikasi parlamenti Senati Raisi Yusuf Rizo G'iloni boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Pokiston parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Tomonlar ikki davlat parlamentlaridagi do'stlik guruhlari faoliyatini kuchaytirish, qonun ijodkorligi

bo'yicha tajriba almashish, yosh parlament a'zolari o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish, shuningdek, parlament institutlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash borasida kelishib oldi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Isroil Davlatining Knesseti Spikeri Amir Oxana bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Isroil o'rtasidagi strategik sheriklikda parlamentlararo aloqalarning o'rni va ahamiyati muhokama qilindi. Ikki tomonlama hamkorlikning barcha yo'nalishida samarali natijalarga erishish uchun parlamentlararo munosabatlarni yanada faollashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish, do'stlik guruhlari faoliyatini jadallashtirish va parlamentlar qo'mitalari o'rtasidagi faol muloqotni yo'lga qo'yish uchun aniq dasturlar ishlab chiqishga kelishib olindi.

Shuningdek, turizm, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, innovatsiya va yuqori texnologiyalar, sog'liqni saqlash sohalaridagi qo'shma loyihalarni kengaytirish imkoniyatlari yuzasidan fikr almashildi.

Suhbat yakunida ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan qadamlar belgilab olindi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Shvetsiya Qirolligi parlamenti (Riksdag)ning Vitse-spikeri Yuliya Kronlid bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish va hamkorlikning yangi yo'nalishlarini belgilash masalalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish uchun o'zaro tashriflarni yanada faollashtirish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish va parlament qo'mitalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha fikr yuritildi.

Uchrashuv yakunida ikki mamlakat parlament qo'mitalari hamda mahalliy Kengashlar o'rtasida muloqotni takomillashtirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida Arab parlamenti Raisi Muhammad Ahmad Al-Yamah bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston parlamentining arab davlatlari parlamentlari bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash va keng ko'lami hamkorlikni rivojlantirish, avvalo, qonun ijodkorligi, parlament nazorati, parlamentlarning qo'mitalari o'rtasida mintazam muloqotni faollashtirish va o'zaro tashriflarni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, ayol yetakchilar uchun alohida forum o'tkazish, O'zbekiston Oliy Majlisi va Arab parlamenti o'rtasida anglashuv memorandumini imzolash, do'stlik guruhini tashkil etish hamda ijtimoiy sohada loyihalarni amalga oshirish maqsadida birgalikda ishlashga kelishib olindi.

FAOL ALOQALAR MUSHTARAK MAQSADLARGA XIZMAT QILADI

4-aprel kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Qatar Davlati Sho'ro kengashi Raisi Hasan bin Abdulloh al-G'onim boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Qatar parlamenti vakillari 5 – 9-aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Uchrashuv avvalida so'nggi yillarda mamlakatlarimiz rahbarlarining siyosiy irodasi, sa'y-harakatlari va do'stona munosabatlari natijasida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani, oliy darajadagi faol siyosiy muloqotlar o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqayotgani yuqori baholandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil oktyabr oyida Qatarga amalga oshirgan davlat tashrif hamda Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soinyning 2023-yilda ikki marta O'zbekistonga qilgan tashrif davlatlar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashda muhim omil bo'layotgani alohida qayd etildi.

Ikki mamlakatning urf-odat va an'analariga muvofiq holda jamiyatni modernizatsiyalash, barqaror rivojlanish, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga erishishga xizmat qiladigan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Qatar Milliy nigohi – 2030" dasturlari bir-biriga hamohang ekanligi ta'kidlandi.

Muloqot davomida delegatsiya a'zolariga yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ro'yogga chiqarish borasidagi sa'y-harakatlar hamda Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

O'z navbatida, Qatar Davlati Sho'ro kengashi Raisi ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lgan parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash, shu yo'nalishdagi muloqotlarni ko'paytirish har tomonlama foydali ekanini qayd etdi.

Shuningdek, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida imzolangan tarixiy shartnoma, Samarqandda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti yuqori baholandi, qo'llab-quvvatlandi.

Samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda parlamentlararo aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish masalalariga e'tibor qaratildi. Parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyatini yanada jonlantirish,

"ACWA Power" kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyanni qabul qildi.

Saudiya Arabistoni kompaniyalari bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz O'zbekistonning "yashil" energetika sohasida strategik investor bo'lgan "ACWA Power" kompaniyasi bilan samarali sheriklik jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Bugungi kunda kompaniya bilan amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar portfeli 15 milliard dollarga yetdi.

O'tgan yil dekabrda Buxoro viloyatida har biri 500 megavattli 2 ta shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi, shuningdek, Samarqand viloyatida umumiy quvvati 1 gigavatt bo'lgan ikkita quyosh stansiyasi va Toshkent viloyatida energiya saqlash tizimlarini qurish loyihalari boshlandi.

"Yashil" energetika, infratuzilma, farmatsevtika, issiqlik va suv ta'minoti modernizatsiya qilish, uy-joy kommunal xo'jaligi va boshqa ustuvor yo'nalishlardagi loyihalarni jadal amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

Shu ma'noda, joriy yilda Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va biznes forumiga puxta tayyorgarlik ko'rish zarurligi ta'kidlandi.

O'ZA.

Surur

BUGUN SAMARQANDDA
JAM BO'LGAN DUNYO!

O'tkir RAHMAT

Kelajak! Nurafshon hikoya uchun,
Adolat qarorin himoya uchun,
Urchigan zulmga nihoya uchun,
Yuksak ko'taruvchi bir g'oya uchun –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Niyatlar xolisdir, orzular bisyor,
Degancha, tinchlikdan boshqasi bekor,
Insonlar zarracha chekmasin ozor,
Yomonlik ko'rmasin bu olam zinhor –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Amir Temur ruhi bo'lmish bugun shod,
Muqaddas maskani ozodu obod,
Ijobat bo'lgaydir maqsadu murod,
Mehrdan manzillar etilgan bunyod –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Tamaddun shu yerdan tashlagan qadam,
Mashriq Mag'ribni bog'lagan mahkam,
Nurli tarixlarni bitganda qalam,
Ilmu fan, ma'rifat, hikmati bekam –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Mirzo Ulug'bekning nafasi bilan,
Shodlik kelar shodon, hur sasi bilan,
Ulkan orzularning evazi bilan,
Ko'ngilda ko'z yorgon havasi bilan –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

G'arbga botgan quyosh Sharqda bo'lib tong,
Oshiqar Registon diydori tomon,
Kunlar kelgani rost chin dorilamon,
Olqishlar yeri ko'k, olqishlar zamon –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Qushlarning parvozi ko'klarga yetar,
Bog'laru tog'larga yetdi xushxabar,
Quchoq ochar bunda har kent, har shahar,
Minglagan dillarning orzusi qadar –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Dunyoda ne kechar? Mazlumlik, azob...
Yovuzlik chang solar dillarga shitob,
Bu baxtli kunlarning o'zi ming kitob!
Do'stlik bayrog'ini ko'tarib bu tob –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Bu hikmat azaldan kelgan tal'atdir:
Birlashgan yo'llarning gardi balanddir,
Birlashgan dillarning qadri balanddir,
Birlashgan ellarning qaddi balanddir –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Birlashmoq baxsh etgay albat ulug' nom,
Dillarda ming surur, qalblarga ilhom,
Yaxshilik tashrifi etadi davom,
Ayni bahor chog'i, qutlug' bu ayyom –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Har ezgu yurakni asrar Samarqand,
O'zi asrab yana yayrar Samarqand,
Tinchlik qo'shig'ini kuylar Samarqand,
Bugun dun ahliga minbar Samarqand –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

So'nmas bo'lsin toki qalblar quyoshi,
Baland bo'lsin elning qadriyu boshi,
Faqat shuni tilar bugun Yurtboshi,
Olam ahli bo'lib bugun yo'ldoshi –
Sobitlik yo'lida intilgan dunyo,
Bugun Samarqandda jam bo'lgan dunyo!

Samarqand! Yurtimning boshidagi toj,
Ey sen, saxiy quyosh, mehribon quyosh,
Yaxshilik nurini boshlar uzra soch,
Tinchlik, ezgulikka mudom quchoq och –
Mudom ezgulikka intilsin dunyo,
Mudom Samarqandda jam bo'lsin dunyo!

HAMJIHATLIK, TINCHLIK VA
DEMOKRATIYANI MUSTAHKAMLASH YO'LIDATOSHKENT SHAHRIPARLAMENTLARARO ITTIFOQNING
150-ASSAMBLEYASIGA MEZBONLIK QILMOQDA

Markaziy Osiyo tarixida ilk bor Toshkent shahrida o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi O'zbekiston uchun muhim siyosiy va strategik voqeyalik sanaladi. Qariyb bir hafta mobaynida mamlakatimiz yirik xalqaro parlament tuzilmalarining to'laqonli a'zosi sifatida global muhokamalar maydoniga aylanadi.

Dunyo e'tiboridagi bu voqeyaa nafaqat mamlakat va mintaq, balki butun dunyo parlamentlari hamjamiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Anjumanda dunyoning 181 mamlakati, 15 kuzatuvchi davlat hamda 25 dan ziyod xalqaro va parlamentlararo tashkilotlardan 2 mingga yaqin delegatlar qatnashishi kutilyapti.

Anjuman davomida jahonning nufuzli parlament delegatsiyalari tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari himoyasi, gender tenglikka erishish, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi hayotiy dolzarb mavzular muhokama etiladi.

Assambleyani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar qatoriga parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va demokratiyani mustahkamlashni ham alohida kiritish mumkin.

Mazkur nufuzli anjumanning ahamiyati haqida xalqaro parlamentariylar o'z munosabatlarini bildirdi.

Eksklyuziv intervyu

Birdamlik sari muhim qadam

Ditapelo Lefoko KEORAPETSE,
Botsvana Milliy assambleyasi
Spikeri:

– O'zbekiston poytaxti Toshkentga yetib kelgach samolyotdan tushishimiz bilan ko'z oldimizda go'zal bir dunyo namoyon bo'ldi. Bu sizning aziz Vatanningiz – O'zbekiston!

Men bilan birga mamlakatimiz Prezidentining davlat ishlari bo'yicha yordamchisi, muxolifat yetakchisi va deputatlar keldi. Delegatsiyamiz sakkiz nafar parlament a'zosi hamda mas'ul xodimlardan iborat.

Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi doirasida samarali



muhokamalarni intiliqlik bilan kutaymiz. Men Jeneva, Botsvana, Angola, Ispaniya va boshqa ko'plab joylarda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Bu maqsadlar barcha mamlakat parlamentlari va parlament a'zolari o'rtasida aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda tajriba almashishni rag'batlantirish, dolzarb xalqaro masalalar bo'yicha o'z pozitsiyasini bildirish va tegishli chora-tadbirlarni belgilash hamda inson huquqlarini himoya qilish va parlament demokratiyasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash kabi bir qator yo'llar orqali amalga oshiriladi.

anjumanlarida qatnashganman. Maqsadimiz – tinchlik va xavfsizlik masalalarini muhokama qilish, shuningdek, turli mamlakatlarda xalqlarning farovonligi, o'zaro manfaatli masalalar yuzasidan fikr almashamiz. Ma'lumki, Parlamentlararo Ittifoq

faoliyati tinchlik va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashish, shuningdek, vakillik organlarini mustahkamlashga qaratilgan. Bu maqsadlar barcha mamlakat parlamentlari va parlament a'zolari o'rtasida aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda tajriba almashishni rag'batlantirish, dolzarb xalqaro masalalar bo'yicha o'z pozitsiyasini bildirish va tegishli chora-tadbirlarni belgilash hamda inson huquqlarini himoya qilish va parlament demokratiyasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash kabi bir qator yo'llar orqali amalga oshiriladi.

Bu galgi Toshkent uchrashuvlarida ham ko'zlangan maqsadlarimizga erishamiz degan umiddamiz.

Bir-birimizni yaxshi anglash uchun
qulay fursat

Zoran ILIYEVSKI,
Xalqaro bag'rikenglik va tinchlik parlamenti
a'zosi (Avstraliya):

– Bu mening O'zbekistonga ilk tashrifim. Avvalo, bizni juda iliq kutib olishgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Qolaversa, Avstraliya delegatsiyasini Parlamentlararo Ittifoq assambleyasida taqdim qilishdan xursandman. Zero, bu anjumanda ko'rib chiqiladigan muhim masalalar bor.

Dunyo hozirda katta inqiroz davrini boshdan kechirmoqda. Ayollar vakili sifatida tinchlik yo'lidagi

harakatlarimiz juda muhim deb hisoblayman. Ushbu anjumanda ham odamlarning hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi masalalar bo'yicha muhokamalarni o'ziga qutaymiz.

Jahon mamlakatlari parlamentlari kabi diqqat-e'tiborimiz tinchlikni ta'minlash va biz xizmat qilayotgan odamlarning ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan. Bizning vazifamiz – erkinlik va xalqlar manfaatiga xizmat qilish. Ushbu majburiyatlarini nafaqat Jenevada yoki uzoqdan konferensiyalar o'tkazgan holda, balki davlatlarning o'zida bajarishimiz kerak. Bu barchamiz uchun foydadan xoli bo'lmaydi, albatta.

Haqiqat shundaki, biz bir-birimizni bilib borganimiz sari farqlar yo'qoladi va umumiy tarafalar namoyon bo'ladi. Avstraliya delegatsiyasi assambleya doirasida tajribalar bilan bo'lishish va zarur muloqotlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi, deb ishonaman.

GLOBAL MULOQOT MAYDONI VA TAJRIBA ALMASHISH IMKONIYATI

Djagat VIKRAMARATN,
Shri-Lanka parlamenti Spikeri:



– O'zbekistonga birinchi marotaba kelishimiz. Ilk taassurotlarim nihoyatda ijobiy. Iliq kutib olish jarayoni, hamkasb do'stlar bilan uchrashuvimiz juda

samimiy o'tdi. Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga to'xtaladigan bo'lsam, unda ko'rib chiqiladigan barcha masala dolzarb. Ushbu anjuman dunyo parlamentlari o'rtasida xalqaro kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'zaro tajriba almashish, O'zbekiston parlamenti faoliyati bilan yaqindan tanishish, mamlakat hayotida parlamentlarning ishtirokini kengaytirish, barqaror taraqqiyotga erishish, inson huquqlari, gender tengligi, yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda parlamentlar hamkorligini ko'rib chiqish imkonini beradi.

O'ylaymizki, aloqalarimiz yaqin kelajakda ushbu yo'nalishlarning uzviy va barqaror rivojlanishini ta'minlab beradi.

Silviya NANE,
Urugvay Senati
a'zosi:

– Biz dunyoning strategik nuqtalaridan birida turibmiz. Mamlakatingiz tarixiy va geosiyosiy jihatdan muhim xalqaro markaz sifatida eng yirik parlamentlararo anjumanga mezbonlik qilmoqda. Dunyoning rivojlangan davlatlari parlamentariylari iliq va samimiy kutib olindi. Shaxsan menga bu samimiylilik, ochiqlik juda yoqdi.

O'zbekiston barcha sohada taraqqiy etayotgan davlat. Ayniqsa, ishlab chiqarish amaliyotida eng muhim zaxiralardan biriga, ya'ni qayta tiklanadigan energiya manbaiga ega. Assambleya orqali ko'p masalalarda, albatta, fikrlashamiz, tajriba almashamiz.

Sarah Alissa
Shadeek BROVNE,
Gayana parlamenti
a'zosi:

– O'zbekiston haqidagi ilk tasavvurlarim ijobiy. Uzoq masofalik parvozdan biroz charchagan bo'lsak-da, hamkasb do'stlarimizning bizni iliq kutib olganidan juda mamnun bo'ldik. Bu, albatta, keyingi muloqotlarimizning ochiq va samimiy o'tishini ta'minlaydi. O'zbekiston rivojlangan, zamonaviy, ochiq davlat. Va bu, shubhasiz, e'tirofga sazovor. Mamlakatingizning mazkur tadbirga mezbonlik qilishi esa mintaqaviy yetakchilikni mustahkamlaydi. Assambleya doirasida muhokama etiladigan masalalar – ijtimoiy himoya, qonun ustuvorligini ta'minlash, gender tenglik va inson huquqlari kabi dolzarb yo'nalishlarda xalqaro hamkorlik kengayadi. Qonun ijodkorligi va parlament nazorati kabi yo'nalishlarda fikr almashamiz, taklif va tavsiyalarimizni bildiramiz.



Klaudio Kaxado
SAMPAYO,
Braziliya deputatlar
palatasi a'zosi:

– Parlamentlararo Ittifoq o'zining yuqori organi – assambleyani parlamentarizm va barqaror rivojlanishning ijobiy tajribasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda o'tkazadi. Bu degani, O'zbekiston ham demokratik boshqaruv yo'lidan dadil odimlayotganini anglatadi. Bunga hamkasb do'stlarim bilan uchrashuv davomida yana bir karra amin bo'ldim. Assambleya kun tartibida tinchlik va xavfsizlik, inson huquqlari, iqlim o'zgarishi, yoshlar va ayollar ishtiroki, BMT bilan hamkorlik kabi dolzarb yo'nalishlar qamrab olinadi. Asosiy sessiyada ijtimoiy taraqqiyot va adolat mavzuida umumiy siyosiy muhokama o'tkaziladi. Shuningdek, IPU qo'mitalarining hisobotlari, rezolyutsiya loyihalari muhokamasi va qabul qilinishi rejalashtirilgan.

«Xalq so'zi».

REKLAMA

QIZIQISH BILDIRISHGA SO'ROV

«O'ZBEKISTONDA RAQAMLIINKLYUZIVLIK» LOYIHASI

Kredit raqami: 7425-UZB

Xizmat tavsifi: “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MCHJ “O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik”

loyihasi doirasida qonunchilik hujjatlarini ishlab chiquvchi xalqaro mutaxassis xizmatlarini ko'rsatishga qiziqish bildirish uchun muvofiq shaxslarni (“Individual konsultant”) taklif qiladi.

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2025-yil 8-aprel, soat 15:00 ga qadar.

Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz Tel.: 71-209-11-99 (1037).

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 442.13 374 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqida ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'ysonmalar taqiz qilinmaydi va ummilda qaytarilmasdyk.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun olamni rasmiylashtirgan tashkiloti javobgar.
Gazeta tahririyati kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxsona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Naybatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhib S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi bosmaxsonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 05.05 Topshirildi — 05.10

1 2 3 4 5 6